



ONOMASTIKANING TIL TARAQQIYOTIDAGI O'RNI (GENERONIM MISOLIDA)

Bozorova Xusnida Mamarejab qizi

Termiz davlat universiteti O'zbek filologiya fakulteti

Amaliy filologiya yo'nalishi talabasi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.14233981>

Kalit so'zlar: onomastika, generonim, gazeta, jurnal, Mirzaahmed Tursunov, Umarov Erkin, stilistik tahlil, grammatik tahlil, fonetik tahlili.

Annotasiya: Onomastikaning til taraqqiyotidagi o'rni juda katta, chunki nomlar tilning rivojlanishiga, keng yoyilishiga ta'sir ko'rsatadi va ularning o'zgarishi tilning tarixiy jarayonlarini, ijtimoiy o'zgarishlarini o'zida aks ettiradi. Generonim onomastika sohasida keng tushunchani ifodalaydi. Generonim - gazeta va jurnallar nomlarini o'rganadigan onomastikaning bir yo'nalishi hisoblanadi. Gazeta va jurnal nomlarining tahlili bu sohada o'ziga xos o'rin egallaydi, chunki ular ijtimoiy va madaniy kontekstda katta ma'no va ta'sirga ega.

Аннотация: Ономастика играет большую роль в развитии языка, поскольку имена влияют на развитие и распространение языка, а их изменение отражает исторические процессы языка и социальные изменения. Генероним представляет собой широкое понятие в области ономастики. Генероним — раздел ономастики, изучающий названия газет и журналов. Анализ названий газет и журналов занимает уникальное место в этой области, поскольку они имеют большое значение и влияние в социальном и культурном контексте.

Onomastika - nomlarning ilmiy tadqiqoti, tilning vaqt o'tishi bilan qanday rivojlanganini va madaniyat, tarix hamda ijtimoiy muhit bilan qanday bog'liqligini o'rganadi. Onomastika, nomlarning ma'nosi va ishlatilishdagi o'zgarishlarni tahlil qilib til va madaniyatning rivojlanishini kuzatadi. Ba'zi bir nomlar vaqt o'tishi bilan yangi ma'no kasb etadi yoki eski ma'nolarini yo'qotadi. Bu esa tilning semantik taraqqiyotiga oid qimmatli dalillarni taqdim etadi. Ayrim nomlar tilning shaxsiy va madaniy xususiyatlarini aks ettiradi va bu nomlarning tahlili orqali tildagi o'zgarishlarni, ularning shakllanishini kuzatish mumkin. O'zbek olimlaridan generonim sohasida Mirzaahmed Tursunov, Abdullayev Shohrux, Umarova Erkin va Rahimov Rahmatulla kabi olimlarning ilmiy ishlari mavjud.

Onomastikaning tilshunoslikdagi o'rni katta va muhim. Onomastika bu nomlar, ya'ni shaxsiy nomlar, joy nomlari, familiyalar va boshqa o'ziga xos belgilarni o'rganadigan tilshunoslikning bir sohasidir. Onomastika, shuningdek,



tilshunoslikning boshqa sohalari, masalan sintaksis, semantika va pragmatika bilan ham bog'liq bo'lib, nomlarning ijtimoiy va madaniy ahamiyatini o'rganishda muhim rol o'ynaydi.

Gazeta va jurnal nomlarini odatda generonim (umumiy nomlar) sifatida ishlatiladi. Masalan, "Xalq so'zi", "Toshkent tongi" kabi gazeta nomlari umumiy ma'noda jamiyat va xalqni bildiradi, lekin ular har bir o'ziga xos nashrni ifodalaydi. Bu nomlar biror nashrni belgilash uchun ishlatiladigan umumiy so'zlar sifatida ko'rilishi mumkin. Boshqa tomondan ayrim gazeta yoki jurnal nomlari aniq spesifikator sifatida ishlaydi. Masalan, "O'zbekiston Respublikasi" kabi nomlar esa aniq bir davlat yoki tashkilotni ifodalashda ishlatiladi.

Gazeta va jurnal nomlari - bu onomastikada o'ziga xos nomlar bo'lib, ular tilda ijtimoiy, madaniy, siyosiy va tarixiy ma'nolarni aks ettiradi. Gazeta va jurnal nomlari ko'pincha biror jamiyatning tarixiy, siyosiy yoki madaniy jarayonlarini aks ettiradi. Masalan, "Xalq nuri" kabi jurnal nomi, xalqning yuksalishi yoki ijtimoiy faollikni anglatishi mumkin.

Gazeta va jurnal nomlari tilning fonetik va morfologik jihatlarini ham aks ettiradi. Qisqa va yodda qoladigan nomlar ko'pincha jurnallar va tomonidan qo'llaniladi. Misol uchun, "Vogue" - moda va go'zallik sohasidagi jurnal bo'lib qisqa nomlar uning global miqyosdagi obro'sini aks ettiradi. Bundan tashqari, ba'zi gazeta yoki jurnal nomlarida morfologik o'zgarishlar yoki so'z birikmalari mavjud bo'lib, bu ularning maxsus xususiyatlarini yoki maqsadlarini ko'rsatadi.

Jadid ziyolilari davrida ham gazeta va jurnallarga nom tanlash muhim ahamiyatga ega bo'lgan. Jadidlarning bir necha yillik harakatlaridan so'ng Ismoil Obidov muharrirligida "Taraqqiy" jurnali nashrdan chiqdi. Bundan keyin Munavvar Qorining "Xurshid", Abdulla Avloniyning "Shuhrat" gazetalari nashr bo'ldi. Bundan tashqari, "Tarjimon", "Ulfat", "Vaqtlar", "Sadoi Turkiston", "Samarqand", "Oyina" kabi jurnallar nashrdan chiqarilgan. Har bir jurnal nomlarining qo'yilishida aniq maqsad va sabablar bo'lgan. Jadidlar asosan gazetaga nom tanlashda xalq ma'rifatparvarligi ularni birlashtirish va ziyoli qatlamlar orasiga chiqarish ko'zda tutilgan.

"Sadoyi Turkiston" jurnali nomining stilistik, semantik, sintaktik, grammatik va fonetik tahlili. Ushbu tahlil jurnal nomining nafaqat til balki madaniyat va tarixiy ahamiyatini ham yoritishga yordam beradi.

Sintaktik tahlil. "Sadoyi" so'zi sado (tovush yangrashi) va yi qo'shimchasidan tashkil topgan bo'lib, bu so'zning ma'nosi "turli joylarda aks sado qilgan tovush" yoki "yangi yangrayish"ni bildiradi. "Turkiston" bu toponim, ya'ni geografik hududning nomi. Turkiston nomi mintaqani bildiradi, bu nomning siyosiy,



madaniy va tarixiy ahamiyati katta. Sintaktik jihatdan " Sadoyi Turkiston" nomi sifat (sadoyi) va ot (Turkiston) birikmasi sifatida ishlatilgan.

Grammatik tahlil jihatdan bu nom tarkibidagi soʻzlar oʻzgarmas shaklda ishlatiladi va faqat konteksga qarab maʼnosi aniqlanadi.

Semantik tahlil. Sadoyi Turkiston - bu nom bir vaqtning oʻzida madaniyat, tarix, xalqning ovozi va ijtimoiy ahamiyatga ega hisoblanadi. Sadoyi soʻzi turli xil oʻzgarishlarni yangiliklarni xalqning fikrini ifodalasa, Turkiston nomi esa bu oʻzgarishlarni oʻzida aks ettiradigan geografik, siyosiy va madaniy hududni bildiradi.

Stilistik tahlil. Sadoyi Turkiston jurnalining bu nomi xalq ovozi, xalqning yangiliklari va tarixiy merosining birligini ifodalovchi simvol sifatida qabul qilinadi.

Fonetik tahlil. Sadoyi soʻzi undosh tovushlar (s, d,y)dan tashkil topgan boʻlib, bu tovushlarning talaffuzi silliq va biroq kuchli taʼsiri koʻrsatadi.

Turkiston soʻzi koʻproq sodda va qisqa talaffuzga ega. Unda (t,r,ks) tovushlari ishlatilgan boʻlib, bu tovushlar xalqning mustahkamligini bildiradi.

" Sadoyi Turkiston" jurnalining tahlili uning sintaktik, grammatik, semantik, stilistik va fonetik jihatlari orqali bu nomning nafaqat tilshunoslik, balki madaniyat va siyosat bilan bogʻliq chuqur maʼno va ahamiyatga ega ekanligini koʻrsatadi. Nomning har bir tahlilini olib borishi orqali jurnalning maqsadi, oʻrni va ijtimoiy yoki siyosiy ahamiyati haqida yaxshiroq tushuncha hosil qiladi.

Xulosa

Onomastika fanida generonim atamasi yetarlicha ochib berilgan. Generonim bu gazeta jurnal nomlarining tahlili hisobladi. Gazeta va jurnal nomlari judayam koʻp boʻlib, har bir nom maʼlum sabab va maqsadlar bilan qoʻyiladi. Har bir gazeta va jurnal nomining qoʻyilishida oʻziga xos boʻlgan tarixiy jarayon mavjud. Har bir gazeta va jurnal nomini semantik, sintaktik, grammatik, stilistik va fonetik tahlildan oʻtkazish kerak. Ana shundagina gazeta nomlarining tahlili toʻliq yoritiladi va maqsadlari namoyon boʻladi. Gazeta va jurnallar jadid davridan beri, yani 1900- yillardan beri nashrdan chiqarilib kelinmoqda. Qariyb bir asrdan buyon minglab gazeta nomlari turli xil nomlar bilan nashrdan chiqmoqda. Agar ularning nomlarini bir joyga toʻplab biror bir ish qilinsa juda katta ilmiy ish vujudga keladi. Chunki generonim atamasi katta obyektini oʻz ichiga oladi. Gazeta va jurnal nomlari nafaqat ijtimoiy, siyosiy, va madaniy oʻzgarishlarni aks ettiradi, balki ular brendni yaratish va marketingdagi muvaffaqiyat uchun ham muhimdir. Bunday nomlar jamiyatda qanday qabul



qilinishini tahlil qilish, ular orqali kengroq ma'lumot olish va tushunish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. <https://oefen.uz/uz/documents/referatlar/umumiy/o-zbek-onomastik-ko-lamining-hajmi-va-mazmuni>
2. <https://zenodo.org/records/7785076>
3. <https://oyina.uz/uz/article/907>
4. O'zbek onomastikasiga doir muhim qo'llanma. Primov A. 2020